

GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH VA XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI KAMSITILISHINING BARCHA SHAKLLARIGA BARHAM BERISH

Huquqiy davlatning muhim belgilaridan biri aholining yuksak huquqiy madaniyati hisoblanadi. Mamlakatimizning endigi taraqqiyoti jamiyat a'zolarining huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini yuksaltirishni dolzarb vazifa qilib qo'yar ekan, shu o'rinda ayollarning huquqiy madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin BMTning teng huquqli a'zosi qatorida MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, bu xalqaro hujjatlarni e'tirof etdi va o'z zimmasiga xotin-qizlarga nisbatan kamsitish siyosatini o'tkazmaslik majburiyatini oldi hamda shu maqsadda xotin-qizlar manfaatlarining huquqiy himoyasini belgilovchi tegishli qonun hujjatlarini larini qabul qildi.

Ular jumlasiga: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonuni kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqida: "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak".

Zamonaviy jamiyatda siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, shaxslararo munosabatlarning rivojiga xizmat qiladigan va ijtimoiy tizimning barcha shakllarida -oila, iqtisodiyot, mehnat bozori, davlat ma'muriy amaliyotida keng qo'llaniladigan, ijtimoiy adolat tamoyillari asosida jamiyat hayotini tashkil etishning dolzarb muammosi gender tengligidir.

Gender — ijtimoiy jins degan tushunchani beradi va ularning tengligini e'tirof etadi. Gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalaridagi munosabatlarning majmuini tashkil etadi va u

rivojlanish jarayonining barcha bosqichlarida: oilada, jamiyatda, ta'limda, siyosatda namoyon bo'ladi.

Jins bo'yicha kamsitish — jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning huquqlari hamda erkinliklarini tan olmaslikka qaratilgan har qanday tarzda farqlash, istisno etish yoki cheklash, jumladan, oilaviy holati, homiladorligi, oilaviy majburiyatlari tufayli kamsitish, shahvoniy tegajog'lik qilish, teng mehnat va malaka uchun har xil haq to'lash tushuniladi.

Qonunga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

Gender tengligi sohadagi normativ-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirish;

Gender tengligi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar madaniyatini shakllantirish;

Jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda xotin-qizlar va erkaklarning teng ishtirok etishini ta'minlash;

Mehnatga oid va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash;

oilani, bolalikni ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, mas'uliyatli onalik va otalikni shakllantirish;

Jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishga qaratilgan axborotdan jamiyatni himoya qilish;

Mazkur sohadagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqishda nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb etish;

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti va boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirish;

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish maqsadida mintaqaviy va xalqaro darajalarda samarali hamkorlikni rivojlantirish belgilangan.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat boshqaruvi organlari quyidagicha shakllantirilgan:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; O'zbekiston Respublikasining Senatdagi Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi;

Davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs belgilanadi.

Vakolatli shaxsning majburiyatlarini bajarish davlat organi rahbarining o'rinbosarlaridan biri zimmasiga yuklatiladi.

Ta'kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me'yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O'zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me'yor va standartlariga to'liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo'yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan.

Shu bilan birga, ushbu yo'nalishda davomiy izchil ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu yerda nafaqat qabul qilingan ko'rsatmalar, balki ularning xalqaro majburiyat va standartlarga muvofiqligi, joylarda o'z vaqtida va aniq bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega.

Shu ma'noda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Jinoyat ishlari bo'yicha

Oltinsoy tuman sudining

sudya yordamchisi

J.Eshonqulov